



O’ZBEK XALQ MUSIQIY CHOLG’ULARINING TARIXIY TARAQQIYOTI VA ULARNING SHAKLLANISH JARAYONI

Muallif: D. Jo’rayeva¹

Affilyatsiya: NamDU San’atshunoslik kafedrasi o’qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14465939>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada milliy qadriyatlarga munosabat, uni yanada rivojlantirish, kelgusi avlodlarga yetkazish, asrlar davomida shakllanib kelgan xalq musiga merosiga vorislik qilish tuyg’usini vujudga keltirish hamda musiqa ta’limi va musiqa pedagogikasi oldida turgan ayrim dolzarb muammolar haqida ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: musiqa, cholg’u, cholg’u ijrochiligi, musiqiy meros, pedagogika, musiqa pedagogikasi, tuyg’u, ta’lim.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi Qarorida “umumiyl o’rta ta’lim muassasalarida milliy musiqa cholg’ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o’rgatiladi hamda bu haqda ularning ta’lim to’g’risidagi hujjatiga (shahodatnomaga) tegishli qayd kiritiladi” [1]. Prezidentimiz O’zbekistonda bundan buyon umumiyl o’rta ta’lim maktabini bitirayotgan barcha o’quvchilar biror musiqa asbobini chalishni bilishi kerak va bu ularning shahodatnomasida qayd etiladi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 27 iyun kuni Namangan viloyati faollari bilan o’tkazgan yig’ilishida gapirgan. Davlat rahbarining fikricha, ashula eshitib bajarilgan ishda 10 baravar baraka bo’ladi.

Inson kamolotida, uning professional va axloqiy qiyofasini to’g’ri shakllanishida musiqadan foydalanish ko’zlangan natijalarga olib kelishi bugungi kunda sir emas. Har qanday san’atkor ham mактабда musiqa darslarini olib bora olmaydi. “Musiqa yo’nalishi” vakillari o’z kasbiga, o’rganuvchilarga mehr qo’ygan yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo’lgan shaxs bo’lmog’i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy sohalari, musiqa o’qitish metodikasi fanlaridan chukur bilimga ega bo’llishi zarur. “Cholg’u San’ati” sozandalari musiqa san’atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko’nikma va tajribaga ega bo’llishi, u – cholg’uchi sozanda, xonanda, xor dirijori, jo’rnavoz, musiqa nazariyasi va amaliyoti kabi bilimlar egasi sifatida faoliyat yuritishi lozim. “Cholg’u san’ati” o’qituvchisining ijodkorligi shundaki, u dars davomida ssenariy muallifi, uning ijrochisi va rejissiyori sifatida ish tutadi. Shu bois “Cholg’u ijrochilik” darsini yirik bir asarga tenglashtirish mumkin.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari rang-barang tarzda, oziga xos shakllardan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos ravishda shakllanib, asrlar osha rivoj topib kelgan. Buyuk allomalarimiz Abu Nasr Farobiy (IX asr) o'zining "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviy (XII asr) Musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iy (XIV asr) "Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy" risolasida, Ahmadiy (XIV asr) "Sozlar munozarasi" asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV asr) "Risola dar bayoni qonuni va amali musiqiy" risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV asr), Amuliy (XVI), Darvesh Ali Changiy (XVII) musiqiy risolalarida musiqiy cholg'ularni o'rganib, tadqiq etish masalalarini turli tomonlariga to'xtalib, o'z davrining musiqiy cholg'ulari tasnifotini bayon etganlar.

O'tmishning zabardast shoirlari o'z asarlarida musiqiy cholg'ular nomlari va ularning mohir ijrochilarini qayd etishda cholg'ularga murojaat etganlar. Ayniqsa, o'z ijodi bilan ma'rifikat darajasiga erishgan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy hazratlari musiqa ilmining eng nafosatli va mumtoz tarmoqlariga urg'u berib o'tganlarini ul zotning asarlaridan bilib olish mumkin. XX asrga kelib Eyxgorn, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayev kabi olimlar musiqiy cholg'ular va ularda ijrochilik masalalarini o'rganish xususida samarali harakatlarni amalga oshirganlar. Tarixiy qo'lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O'rta Osiyo xalqlari cholgu ijrochiligi amaliyotida vujudga kelgan cholg'ularning nomlari o'z ifodasini topgan.

Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbati, sozgarlik mezonlari, cholg'ular tayyorlashda ishlatiladigan daraxtlar va materiallar haqida malumotlar keltirilgan. Ularda torli cholg'ulardan: Borbad, Ud, Rud, Qo'biz, G'ijjak, Navha, Nuzxa, Qonun, Chang, Rubob, Tanbur, Dutor; Damli cholg'ulardan: Ruhafzo, Shammoma, Organun, Sibizg'i, Nayi anbon, Chag'ona, Bulamon, Surnay, Nay, Qoshnay, Karnay; Urma zarbli cholg'ulardan: Daf, Doira, Nog'ora, Safoil kabilar to'g'risida turli darajadagi ma'lumotlar keltirilgan.

Xalqimizning did va madaniyati, san'atga bo'lgan talabi va ehtiyoji kun sayin yuksalib bormoqda. Chunki san'at inson ruhiyatining tarbiyalovchisidir. Ayniqsa, o'zbek milliy san'ati har qanday ko'ngilni zabit etishi, ayni haqiqat, milliy maqom san'atimiz buning yorqin namunasidir.

O'zbek xalq cholg'ularini o'zlashtirishning an'anaviy uslublari - musiqa asarlarini ijro etish boy og'zaki an'analarga asoslangan bo'lib, ustoz-murabbiy kuyni o'z shogirdiga og'zaki uzatish, ya'ni cholg'uda bevosa ijro etib berish yo'li bilan yetkazish, shogird esa uni deyarli yodlab olishi orqali olib borilgan. Shu bois xalq sozandalari orasidagi ustoz-shogirdlik an'analari yoshlarga musiqa ijrochiligini o'rgatish usullari sifatida mohir cholg'uchilarning shakllanishiga katta imkon yaratgan. «Shashmaqom» bilimdonlari Ota Jaloliddin Nosirov (1845 - 1928), Ota G'iyos Abdug'aniev (1859 -1927), shuningdek, o'zbek va tojik xalq musiqasi ijrochilari tanbur va dutor njrochiligi hamda xonandalik va o'zbek bastakorlik san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelganlar. Biri biridan o'rgangan, biri biriga o'rgatgan usta san'atkorlar ijro siru sehrleridan bir-birlarini bahramand etishgan. Yillar o'tib xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati zamon talabiga ko'ra yangi yo'nalish bo'yicha rivojlandi. Natijada O'zbekistan Respublikasining musiqiy ijrochilik san'atida yangi avlod ustalarining shakllanishiga zamin yaratildi.

Yuksak ma'naviyat va barkamollik sari yetaklashda tarbiyaning ko'plab omil va vositalari qatorida musiqa alohida o'rin egallaydi. Musiqa o'z tabiatini bilan o'zgacha bir olam. Mo'jizakor tovushlar, maftunkor kuylar, ajib tuyg'ular, g'aroyib hissiy kechinmalar

ana shu musiqaga xos. Musiqa va qo'shiq jo'shqin hissiyotlar va rang-barang hayot taassurotlarining kuchli tug'yoni bilan tug'iladi. U dillardan - tillarga, tillardan yana dillarga orombahsh harorat bo'lib quyiladi. So'z va kuyning bunday g'aroyib ta'siri qalblarda yuksaklik, poklik va ezgulik hislarini uyg'otadi, ijod rivojiga turtki beradi, ong va tafakkur o'sishiga ko'maklashadi, o'zini chuqurroq anglashga, hayotni kengroq tushunishga yordam beradi. Bu holat o'z navbatida har bir ustoz murabbiy uchun katta tarbiyaviy ishlarini amalga oshirish imkonini yaratadi.

Cholg'u ijrochiligining o'rni Tarbiya vositasi sifatida cholg'u ijrochiligining an'analari qadim davrlarga borib taqaladi. Xalqimizning voqealarga boy bo'lgan butun tarixi qo'shiq va cholg'ularda kuy bilan bog'langan va unda o'z aksini topgan. Qo'shiqda va ayniqsa, cholg'u ijrochilardagi asarda umuman bir tomondan insonni jonlantiruvchi va botinan harakatga soluvchi sifatlar bo'lsa, boshqa tomondan mehnatni tashkil qilishga, birdamlik bilan biror maqsadga erishishga undovchi xislatlar bor [5].

Shuning uchun mehnat ahli ish jarayonida ish kuchini birlashtirish uchun qo'shiqlardan keng ko'lamda foydalanadilar, ana shuning uchun ham musiqiy guruhlarda qo'shiqni joriy qilish talab etiladi. U bir qancha alohida tuyg'uni yagona kuchli tuyg'uga birlashtiradi va bir qancha qalbni yagona, teran his qiluvchi qalba aylantiradi, ko'pchiliknining kuchi bilan bilim olish mashaqqatlari ustidan g'alaba qozonishi bu juda muhim. Bu mulohazalardan quyidagicha mulohaza qilish mumkin: talabalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari va jamoa bo'lib birlashish kabi xislatlarini tarbiyalashda vokal ijrochiligi juda katta ahamiyatga ega.

Colg'u san'ati bir tomondan ijrochilikning eng ommoviy shakli bo'lsa, boshqa tomondan aksariyat xislatlari bilan o'ziga xos individual xarakterga ega. Ijrochilik mahorati, soz chalish usuli, repertuari, chlg'u o'qituvchisining qobiliyati kabi individual xarakterdagи xislatlar cholg'u jamoasining ijodiy "qiyofa"sinи boshqasidan ajratib turadi. Cholg'u jrochiligining asosiy vazifasi o'zbek, rus va chet el klassik asarlarining eng yaxshi namunalarini ijo etish va targ'ib qilishdan iborat. Bu asarlar ijrochining mohir uslubiga to'g'ri keladi va bu cholg'u ijrochilari maktabi hisoblanadi. Asarlar cholg'u o'qituvchisining boshchiligidagi fortepiano jo'rligida ijro etiladi.

Cholg'u san'ati aslida professional san'atni oziqlantirib turadigan hayotbaxsh manbalardan biridir. Shuning uchun ham cholg'u san'ati yuksak darajaga ko'tarilgan joyda professional san'at kadrlari ham ko'p etishib chiqqan bo'ladi. Chunki cholg'u san'ati o'zining eng yaxshi vakillarini professional san'atga uzatib, uning safini boyitib turadi. Cholg'u san'ati professional san'at talantlarining sarchashmasi, aniqrog'i buyuk san'at dargohiga olib o'tadigan o'ziga xos bir ko'prikdir. Cholg'u san'ati yillar o'tishi bilan har jihatdan o'sadi va takomillashadi. Cholg'u san'atining tuman, viloyat, respublika miqyosidagi ko'rik va tanlovlari o'tkazilib kelinayotgan estetik tarbiya sohasidagi ishlarning anchagini jo'nashib ketishiga amaliy yordam berdi.

Kuy taralsa, olam uzra ohanglar oqadi va ular sizni shirin hislarga oshno etadi. Shu vaqtga qadar odamzod aqlu zakovati ila bir qancha musiqa cholg'ularini yaratdi: tutor, nay, chang, rubob, tanbur, g'ijjak, kabi sozlarning har biridan o'ziga xos kuy taraladi, kuyni esa bastakor yaratadi. Musiqa, xaqiqatdan ham juda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan san'at turidir. Ijodkorlar ilohiy bir qonuniyat asosida tovushlar vositasi bilan badiiy obrazlar yaratadilarki, inson ichki dunyosi, tug'yonlarini tugal, mukammal asarlarida mujassam bo'ladi, uning kuchi insoniyatni, ayniqsa, yosh avlodni

tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligini tan olmay ilojimiz yo'q. Kundalik hayotimizda musiqa charchaganda charchoqni chiqaradigan, siqilganda dillarning chigimini yozadigan sherik bo'la oladi. Musiqa insonni sehrlaydi, ezgulikka, mehr shavqat, shirin orzularga undaydi, yomon yo'lidan qaytaradi, o'ylatadi, yig'latadi, kuldiradi. Musiqa inson hayotiga ko'makdosh, hamrox, musiqani yorug'likka, yonib turgan chiroqlarga o'xshatish joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Sh.M.Mirziyoev Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarori

O'zbekiston Prezidentining O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi .
2017 y

Rahimov Sh., Lutfullayev A. "Cholg'ushunoslik" T.: 2010y.

